**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**

**"Tasdiqlayman"**
Toshkent farmatsevtika instituti
o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor,
f.f.n. Alieva S.U.
____________
__________2017 yil.

# Patologiya fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 500000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot |
| Ta’lim sohasi: | 510000 – Sog‘liqni saqlash |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 5510500 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) |
| | 5111000 – Kasb ta’limi (5510500-Farmatsevtika ishi) |

**Toshkent – 2017**

**Tuzuvchilar:**

| | |
|---|---|
| **Saidov S.A.** | Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi mudirii, tibbiyot fanlari doktorш, dotsent. |
| **Mirtursunova S.Z.** | Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi dots., b.f.n. |
| **SH.SH. Bobojonova** | Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi katta o'qituvchi. |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| Z.T.Fayziyeva | Toshkent Farmasevtika instituti farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasi dotsenti, t.f.d. |
| R.G.Utyamishev | Gematologiya va qon quyish ITI professori t.f.d. |

Uslubiy ko`rsatma namunaviy dastur asosida ishlab chiqildi va kafedraning 2016 yil 6 iyundagi 20-sonli yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Kafedra mudiri, dotsent Saidov S.A.

Uslubiy ko`rsatma tibbiy fanlari soha uslubiy kengashining 2016 yil 10 yundagi 10 -sonli yig`ilishida muhokama qilindi tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Kengash raisi: Saidov S.A.

Uslubiy ko`rsatma MUKning 2017 yil ______dagi ___-sonli majlisida muhokama etilgan va tasdiqlangan

Markaziy uslubiy kengash raisi: Aliev S.U.

Uslubiy ko`rsatma Toshkent farmatsevtika instituti ilmiy kengashining 201_ yil _____dagi ___-sonli yig`ilishida muhokama qilinib, chop etish uchun tavsiya etildi.

Ilmiy kotib V.R. Haydarov

# KIRISH

Patologiya oliy meditsina ta’lim tizimida meditsina fani va amaliyotini mustasnosiz barcha jabhalarining bevosita asosi sifatida fundamental – zaminiy fanlar qatoriga kiradi.

Patologiya fani oliy ta’lim tizimida tibbiy-biologik fanlar va kimyo farmatsevtika sohalarining yaqinlashuvida muhim vazifani o‘taydi. Ushbu fanning asosiy maqsadi, u kasal organizmdagi hayotiy jarayonlarni o‘rganadi.

Meditsina-ning turli muammolarini anglash, masalalarini hal etish va savollariga davrning o‘ziga xos fan – texnika yutuqlari asosida zamonaviy nuqtai nazardan javob berish kabi vazifalarini o‘z ichiga olgan patologiya fani muhim fanlar qatoriga kiradi. CHunki ayrim yoki mahsus fanlar (biologiya, anatomiya, gistologiya, fizika, kimyo) hamda klinik meditsinaning turli sohalariga oid adabiyot manbalarini topish, son – sanoqsiz kasalliklarga hos ma’lumotlarni patologiya nuqtai nazaridan bilish, ularni tahlil eta olish, uning asosida eksperimental sharoit (tajriba) da davolash choralarini topib, asoslab berish va h.k. masalalarni hal etish, asosan shu fanning zimmasidadir.

## Fanning va maqsad vazifalari

Tibbiyotning turli muammolarini anglash, masalalarini hal etish va savollariga davrning o‘ziga xos fan – texnika yutuqlari asosida zamonaviy nuqtai nazardan javob berish kabi vazifalarini o‘z ichiga olgan patologiya fani muhim fanlar qatoriga kiradi. Chunki ayrim yoki mahsus fanlar (biologiya, anatomiya, gistologiya, fizika, kimyo) hamda klinik tibbiyotning turli sohalariga oid adabiyot manbalarini topish, son – sanoqsiz kasalliklarga hos ma’lumotlarni patologiya nuqtai nazaridan bilish, ularni tahlil eta olish, uning asosida eksperimental sharoit (tajriba) da davolash choralarini topib, asoslab berish va h.k. masalalarni hal etish, asosan shu fanning zimmasidadir. Tibbiyot nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini, bilim doirasi zamonaviy, talablarga javob bera oladigan mutahassislarni etishtirishda fanning ahamiyati nihoyatda kattadir. Fanning dolzarbligi ham ana shunda.

Kasalliklarning asosida yotuvchi umumiy va xususiy hamda o‘ziga hos mazmunga ega bo‘lgan funksional o‘zgarishlar – patologik jarayonlar va holatlarning kelib chiqishi (“etiologiya”), rivojlanish mexanizmlari, kechishi (“Patogenez”) va sog‘ayish – tiklanish mexanizmlari (“Sanogenez”) ga oid murakkab hodisalarning qonuniyatlari, ularning evolyusion ildizlari, zamonaviy ijtimoiy – ekologik manbalarini va shu kabilarni bilish, albatta har jabhadagi mutaxassis uchun nihoyatda zarur.

Bu fan asosan hayotiy faoliyatning buzilishining kelib chiqishi va rivojlanishi qonuniyatlari va ularning sabablari, tipik shakllari, mexanizmlari, oqibatlari va organizm uchun ahamiyati xaqida umumiy tasavvurlar beradi.

Patologiya kursining birinchi asosiy vazifasi shundan iboratki, talabalar tipik jarayonlarning sabablarini, mexanizmlarini va asosiy ko‘rinishlarini, yallig‘lanish, tromboz, emboliya, o‘smalar, shish, isitma, gipoksiya, moddalar almashinuvi buzilishining asosiy shakllarini, og‘riq, shok va boshqa favqulotdagi ekstremal holatlarni hamda ayrim fiziologik a’zolar tizimlarining tipik buzilishlari haqida bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Undan tashqari, talabalar organizm uchun zararli ta’sir qiladigan va himoya – moslashuv patologik jarayonlarning bir – biriga aloqadorligi, va kasallikning xar – xil bosqichlarida o‘zgarib turishlari xaqida tushunchaga ega bo‘lishlari kerak.

Patologiyaning ikkinchi vazifasi shundan iboratki, talabalar asosiy patologik jarayonlarning rivojlanishida farmakologik aralashuvlarning yo‘llari va oqibatlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berish. Yuqorida ta’kidlagan fikrlar farmatsevtika bilimlarini takomillashtirishning muhim vazifalarini tashkil qiladi.

## Fanni boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi

Patologiya fanini o‘rganishda fiziologiya bilan odam anatomiyasi, biokimyo, mikrobiologiya va farmakologiya fanlarini materiallaridan keng foydalaniladi. Bu fanlardan olingan bilimlar

prodyuser uchun nixoyatda ahamiyatli bo‘lib, ular yordamida kasalliklarni rivojlanish mexanizmi, uni davolash va oldini olish kabi muxum tushunchalarni bo‘lajak farmatsevt egallashi lozim. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi kursi:
- Odam organizmining asosiy tizimlari (yurak qon tomir, nafas, endokrin, ayruv va x.k.) a’zolarini tuzilishi va funksiyasini;
- Xazm fiziologiyasi;
- Ichki muxit (gomeostaz) tushunchasi;
- Modda va energiya almashinuvi. Termoregulyasiya.
- Analizatorlarning tuzilishi va funksiyasi;

*Biologik kimyo kursi:*

- Organik moddalarning tuzilishi va xossalari;
- Organizmda kechadigan xayotiy jarayonlar (modda va energiya almashinuvi);
- Vitaminlar xillari, tarkibi va ahamiyati;

Mikrobiologiya kursi:
- Patogen va patogen bo‘lmagan mikroorganizmlar to‘g‘risida tushuncha;
- Immunokompetent sistema to‘g‘risida tushuncha;
- YUqumli kasalliklarni kechishi, davolash, oldini olish usullari;

*Farmakologiya kursi:*

- Dori moddalarini xillari ta’sirlanish mexanizmlari;
- YUrak qon tomiri kasalliklarini davolashda ishlatiladigan dori – darmonlar.

## Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Patologiya fanini o‘qitishda ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muxim ahamiyatga egadir. Ma’ruzalarda Internet materiallari, tarqatma materiallar, prezentatsiyalar, multimedia dasturi, slaydlardan, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda esa zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

- Shulardan kelib chiqqan holda “Patologiya” fanining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

- • **Muammoli yondashuv.** Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish o‘quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob’ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo‘llash ta’minlanadi.

- • **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya’ni o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

- Yuqoridagi konseptual yondashuv va “Patologiya” fanining tarkibi, mazmuni, o‘quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o‘qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

- • **O‘qitish usullari va texnikasi**: muloqot, muammoli usul, “aqliy hujum”, insert, ma’ruza (kirish ma’ruzasi, vizual ma’ruza, tematik, aniq holatlarni echish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).

- • **O‘qitishni tashkil qilish shakllari**: kollektiv, guruhiy.

- • **O‘qitish vositalari**: odatdagi o‘qitish vositalari (darslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop) dan kompyuter va axborot texnologiyalari.

- • **Boshqarishning usuli va vositalari.** O‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘quvchi va o‘qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talaballarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

- • **Monitoring va baholash.** O‘quv mashg‘uloti va butun kurs davomida o‘qitish natijalarini kuzatib borish, o‘quvchi faoliyatini har bir mashg‘ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

**“Patologiya” Fanining**
**2016/2017 o’quv yili uchun mo’ljallangan**
# SILLABUSI

<table>
<tr><td colspan="8">Fanning qisqacha tavsifi</td></tr>
<tr><td>OTMning nomi va joylashgan manzili:</td><td colspan="5">Toshkent farmatsevtika instituti</td><td colspan="2">Oybek ko`chasi, 45</td></tr>
<tr><td>Kafedra:</td><td colspan="5">Farmakologiya va klinik farmatsiya</td><td colspan="2">“farmatsiya” fakulteti tarkibida</td></tr>
<tr><td>Ta’lim sohasi va yo`nalishi:</b></td><td colspan="2">5510500 – Фармация<br>5111000 – Касб таълими<br>5510600 – Sanoat farmatsiyasi</td><td colspan="5">Bakalavriat bosqichining farmatsiya, klinik farmatsiya va kasbiy ta’lim yo`nalishlari talabalari uchun mo`ljallangan</td></tr>
<tr><td>Fanni (kursni) olib boradigan o`qituvchi to`g`risida ma’lumot:</td><td colspan="2">Dotsent, kaf.mudiri Saidov Saidamir Abrorovich<br>Katta o’qituvchi To’laganov Bobur Sobirovich<br>Yusupova Dilfuza Abdijamilovna</td><td colspan="3">e-mail:</td><td colspan="2">ssaidov@yandex.ru<br>bobur_zamdek@mail.ru<br>dilfuza.uz70@mail.ru</td></tr>
<tr><td>Dars mashg`ulotlarini o`tkazishning vaqti va joyi:</td><td colspan="2">O`quv bo`limi tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida institut o`quv binolarida<br>127-xona, 13-xona</td><td colspan="3"><b>Kursning boshlanishi va davom etish muddati:</b></td><td colspan="2">Bakalavriat ta’lim yo`nalishi o`quv rejasiga muvofiq to’qqzinchi semestrda</td></tr>
<tr><td>Individual grafik asosida professor-o`qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:</td><td colspan="7">Haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari soat 14.00 dan 18.00 gacha</td></tr>
<tr><td rowspan="2">Fanga ajratilgan o`quv soatlarining o`quv turlari bo`yicha taqsimoti</td><td colspan="5">Auditoriya soatlari</td><td rowspan="2">Mustaqil ta’lim:</td><td rowspan="2">46(40)</td></tr>
<tr><td>Ma’ruza:</td><td>17</td><td colspan="2">Amaliy mashg’ulot</td><td>51</td></tr>
<tr><td>Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekvizitlari):</td><td colspan="7">fiziologiya, patologiya, anatomiya, farmakologiya va fuqarolar mudofaasi, lotin tili.</td></tr>
<tr><td colspan="8">Fanning mazmuni</td></tr>
<tr><td>Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:</td><td colspan="7"><u>Fanni o‘qitishdan maqsad</u> – turli baxtsiz xodisalar tufayli jaroxatlanishda, o‘tkir kechuvchi kasalliklarda, zaharlanishda va boshqa xolatlarda shifokor kelguncha o‘z vaqtida va to‘g‘ri PATOLOGIYA ko‘rsatish xaqida tushunchaga ega bo‘lish.<br><u>Fanning vazifasi</u> - turli xil baxtsiz xodisalar tufayli yuzaga kelgan xolatlarda bemorlarga yoki jaroxatlangan kishilarga shifokor kelguncha o‘z vaqtida va to‘g‘ri tibbiy yordam ko‘rsata bilishdan iborat. “Birinchi tibbiy</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | yordam” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:<br>• aseptika, antiseptika;<br>• jaroxatlarning turlari va birinchi tibbiy yordam;<br>• qon oqishi turlari va birinchi tibbiy yordam;<br>• bog‘lamlar turlari va birinchi tibbiy yordam;<br>• suyak sininishi va bo‘g‘im chikishida birinchi tibbiy yordam;<br>• kuyish va sovuq olishida birinchi tibbiy yordam;<br>• bosh miya jaroxatlanishida birinchi tibbiy yordam;<br>• o‘tkir terapevtik kasalliklarda birinchi tibbiy yordam;<br>• o‘tkir xirurgik kasalliklarda birinchi tibbiy yordam;<br>• zaxarlanishda vrachgacha bo‘lgan birinchi tibbiy yordam usullarini bilishi kerak.<br>**shuningdek talabalar:**<br>• ichki a’zolarning anatomik tuzilishi va fiziologik xususiyatlari,<br>• ichki a’zolar funksional xolatlarini baxolash;<br>• aholi o‘rtasida ko‘p uchraydigan o‘tkir kechuvchi terapevtik kasalliklarning kechimini aniqlay olish<br>• o‘tkir kechuvchi xirurgik kasalliklarda shifokorgacha shoshilinch yordam ko‘rsata olish<br>• o‘tkir va surunkali yuqumli kasalliklarni aniqlay olish;<br>• turli moddalar bilan zaxarlanish holatlarida shishilinch yordam ko‘rsata olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.<br>**talabalar:**<br>• bemorlarni parvarish qilish va tibbiy muolajalarni bajara olish<br>• (xaroratni o‘lchash, A/B-o‘lchash, puls xisoblash, me’dani chayish, klizma-qo‘yish, turli in’eksiyalar, suniy nafas oldirish, yurakni yopiq usulda uqalash);<br>• qon oqishini vaqtinchalik to‘xtatish;<br>• jgut va shina qo‘yish;<br>• turli bog‘lamlar qo‘yish;<br>• jaroxatlangan va boshqa bemorlarni transportda olib borish qoidalari;<br>• spetsifik kasallik bilan og‘rigan og‘ir bemorlarni (urologik, xirurgik v.b.) parvarish qilish malakalariga ega bo‘lishi kerak. |
| **Talabalar uchun talablar** | Institutning odob-ahloq kodeksi talablarigi qat’iy rioya qilish, shuningdek:<br>-professor-o‘qituvchi auditoriga kirganida o‘tirgan joydan turib “Assalomu alaykum” deb kutib olish;<br>- uyali aloqa vositalarini o‘chirib qo‘yish;<br>- professor-o‘qituvchidan so‘ng dars mashg‘ulotiga kech kelgan talaba auditoriyaga kiritilmaydi;<br>- professor-o‘qituvchi va guruhdoshlarga qo‘pollik qilmaslik, so‘z talashmaslik, hurmat bilan munosabatda bo‘lish;<br>- institut ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;<br>-kiyinish talablari (madaniyati) ga rioya qilish;<br>-mashg‘ulotlar vaqtida o‘qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqmaslik (umuman dars jarayonida auditoriyadan sababsiz chiqishga ruxsat berilmaydi);<br>- uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;<br>- ko‘chirmachilik (plagiat) qilmaslik, qat’iyan man etiladi; |

| | |
|---|---|
| | - darslarga qatnashish majburiy, sababsiz 3 (uch) va undan ortiq dars qoldirgan talaba keyingi mashg‘ulotlarga fakultet dekani ruxsati bilan kiritiladi;<br>- sababli dars qoldirilgan taqdirda, professor-o‘qituvchiga ma’lumotnoma (spravka) taqdim etish;<br>- har qanday holatlarda ham qoldirilgan darslar qayta o‘zlashtirilishi shart;<br>- ma’ruza va amaliyot darslariga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;<br>- qo‘shimcha ravishda bajarilgan taqdimot, mustaqil ish, esse, referat, kreativ fikrlash darajasi, turli xil tadbirlar va ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruzalar bilan ishtirok etish;<br>- talabaga o‘z vaqtida bajarilmagan mustaqil ish, uy vazifasi, tartib – intizomi bo‘yicha choralar ko`rish;<br>- talaba reyting ballidan norozi bo‘lsa fan bo‘yicha nazorat turlari e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat qiladi va apellyasiya komissiyasi shu kunning o‘zida talabaning arizasini ko‘rib chiqib xulosa chiqaradi. |
| **Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi** | Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha. |

**PATOLOGIYA fanidan mashg‘ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi:**

| **t/r** | **Mavzular nomi** | **Jami soat** | | | | **Ma’ruza** | | | | **Amaliy mashg‘ulot** | | | | **Mustaqil ta’lim** | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Farmatsiya.** | **Kasb ta’lim (turlari bo‘yicha)** | | | **Farmatsiya.** | **Kasb ta’lim (turlari bo‘yicha)** | | | **Farmatsiya.** | **Kasb ta’lim (turlari bo‘yicha)** | | | **Farmatsiya.** | **Kasb ta’lim (turlari bo‘yicha)** | | |
| **1** | Patologiya faniga kirish. Farmasevtlar faoliyatida patologiya fanining ahamiyati. | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **2** | Hujayra shikastlanishi. Patologik jarayonlarni rivojlanishida shart – sharoitlarning ahamiyati | **9** | **9** | | | | **2** | | | **3** | **3** | | | 4 | 4 | | |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **3** | Qon aylanishining mahalliy buzilishlari.Tromboembolizm va staz. | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **4** | Yallig‘lanish.Ekssudatsiya | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **5** | Isitma. Termoregulyasiya. | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **6** | Moddalar almashinuvi patogiyasi. Qandli diabetlar | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **7** | Kislota – ishqor muvozanatining buzilishlari. Suv – tuz almashinuvining buzilishi.Edema. | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **8** | Immun tizimi patologiyas.Allergiya. | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **9** | To‘qima o‘sishining patologiyasi.Neoplaziyalar | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **10** | Qon tizimining patologiyasi.Talassemiyalar | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | **4** | **4** | | |
| **11** | Oq qon patologiyasi. Reaktiv leykotsitozlar | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | **4** | **3** | | |
| **12** | Yurak – qon tomirlari tizimi patologiyasi. Kardiomiopatiyalar | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | **5** | **3** | | |
| **13** | Nafas tizimi patologiyasi. Pnevmoniyalar. | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | | | | |
| **14** | Hazm tizimi patologiyasi. | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | | | | |
| **15** | Jigar va me’da osti bezi patologiyasi. Yog’li epatozlar. | **9** | **9** | | | | | | | **3** | **3** | | | | | | |
| **16** | Buyraklar patogiyasi.Arteri | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | | | | |

| | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | onefroskleroz | | | | | | | | | | | | | | | | |
| **17** | Endokrin tizimi patlogiyasi. Endokrinopatiyalar. | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | | | | |
| **18** | Nerv tizimi patologiyasi. | **9** | **9** | | | **2** | **2** | | | **3** | **3** | | | | | | |
| | Jami | **121** | **114** | | | **18** | **18** | | | **54** | **54** | | | **49** | **41** | | |

**Talabalar bilimini baholash tizimi:**

| t/r | Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi | Maksimal yig‘ish mumkin bo‘lgan ball | JN va ON ballar taqsimoti | |
|---|---|---|---|---|
| **I. Joriy nazoratdagi ballar taqsimoti** | | **70 ball** | | |
| ***Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda*** | | Maksimal ball | *-JN* | |
| 1. | Talabaning ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlardagi faolligi va o‘zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati | 45 | 5 | |
| 2. | Mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi (keys-stadilar, esse, referat, taqdimot va boshqa turdagi mustaqil ta’lim topshiriqlari) | 5 | | |
| **II. Oraliq nazorat** | | **20ball** | | |
| 1. | Oraliq nazorat (amaliy mashg‘ulot o‘qituvchisi tomonidan qabul qilinadi) | | Semestrning 9-haftasi | |
| **III. YAkuniy nazorat** | | **30 ball** | Semestrning oxirgi ikki haftasida | |
| **Jami:** | | **100 ball** | | |

**Asosiy adabiyotlar:**


I. A. Karimov. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent-1997yil.
B.Xodiyev; L Golish “Mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari, Toshkent – 2010-yil
Maloshtan L.N; Ryadnik E.K; Jegunova G.R; Petrenko I.G “Fiziologiya s osnovami anatomii cheloveka” Xarkov 2002 yil
“Ichki kasalliklar”. O’.Sharopov, F.G’afforova Toshkent-2007 yil
N.X.Abdullaev; X.Y.Karimov “Patofiziologiya”. Toshkent-1998yil
N.X.Abdullaev; X.Y.Karimov “ Patologik fiziologiyadan amaliy mashg’ulotlar bo’yicha qo’llanma”. Toshkent- 1994 yil.
A.D.Ado, “Patologicheskaya fiziologiya”. Xarkov- 1985yil
R.A. Qoraboeva; A.H. Hasanov; H.A. Xo’jaeva “ Ichki kasalliklar propedevtikasidan qo’llanma”. Toshkent-1997 yil
O’. Tolipov. M. Usmonboyeva. “ Pedagogik texnologiya. Toshkent- 2005yil.

| | |
|---|---|
| | . R. Ishmuxamedov; R. Abduqodirov. " Innovasion texnologiyalar. Toshkent-2007yil.<br>. N. Avliyoqulov. " Pedagogik texnologiyalar". Toshkent-2008yil<br>. R.J.Ishmuhamedov; Pardaev. A; Abduqodirov.A."Ta'limda Innovasion texnologiyalar. Toshkent-2008yil.<br>13. H.Y.Karimov.,S.A.Saidov.,SH.SH. Bobojonova.,Patologiya,T.«Tafakkur qanoti» Toshkent-2014yil<br>14. B. Rahimov. "Pedagogik texnologiyalar sxemalarda". Toshkent-2009yil<br>15. N. Saidahmedov; S. Abdurahimov." Pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat". Toshkent-2010yil.<br>16.S.G. Xachkruzov." UZI v ginekologii". Sankt- Peterburg-2003yil |
| **Qo'shimcha adabiyotlar:** | Musaev X.N., Bagdasarova E.S., Salibaeva S.A. "Patologiya" fanidan o'quv – uslubiy qo'llanma "KOLORIT GROUP" XK. Toshkent 2008 y.<br>Ado A.D. i Ishimova L.M.. Patologicheskaya fiziologiya. M., izd – vo "Meditsina", 1980 g.<br>Bereznyakova A.I. Patologiya ucheb. posob. Xar'kov. 1985 g.<br>Abdullaev N.X.. Karimov X.Y., Patologik fiziologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma. T., "ToshMI" nashriyoti, 1994 y.<br>Litvitskiy P.I.. Patologicheskaya fiziologiya. M., izd – vo "Meditsina", 1995 g. |
| **Xorijiy adabiyotlar:** | 1. Robbins+Basic+Pathology+(9th+Edition)California- 2013y<br>2.A.D.Ado, "Patologicheskaya fiziologiya". Xarkov- 1985yil<br>3.S.G. Xachkruzov." UZI v ginekologii". Sankt- Peterburg-2003yil<br>4.Vikrem Dogra; Debra Djorj Rubens." Sekreti Ultrazvukovoy diagnostiki." London-2006 yil. |

## Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni va hajmi

| № | Amaliy ( seminar) mashgulotlarining nomi | Axborot kommunika-sion texnologiyalar | YAngi pedagogik texnologiyalar |
|---|---|---|---|
| 1. | Patologiya faniga kirish. Farmasevtlar faoliyatida patologiya fanining ahamiyati. | Taqdimot | B.B.B. |
| 2. | Hujayra shikastlanishi. Patologik jarayonlarni rivojlanishida shart – sharoitlarning ahamiyati | Taqdimot | "Kaskad"sxemasi |
| 3. | Qon aylanishining mahalliy buzilishlari.Tromboembolizm va staz. | Animatsiyali taqdimot | "Toifalash" jadvali |
| 4. | Yallig'lanish.Ekssudatsiya. | Animatsiyali taqdimot | Aqliy xujum |
| 5. | Isitma. Termoregulyasiya. | Taqdimot | Aqliy xujum |
| 6. | Moddalar almashinuvi patologiyasi. Qandli diabetlar | Taqdimot | B.B.B. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Kislota – ishqor muvozanatining buzilishlari. Suv – tuz almashinuvining buzilishi.Edema. | Taqdimot | Venna diagrammasi |
| 8. | Immun tizimi kasalliklari Allergiya. | Taqdimot | B.B.B usuli |
| 9. | To‘qima o‘sishining patologiyasi. Neoplaziyalar | Taqdimot | Nima uchun? sxemasi |
| 10 | Qon tizimining patologiyasi. Anemiya tasnifi.Talassemiyalar | Taqdimot | “Baliq skeleti” |
| 11 | Oq qon patologiyasi. Reaktiv leykotsitozlar | Taqdimot | Aqliy xujum |
| 12 | Yurak – qon tomirlari tizimi patologiyasi. Kardiomiopatiyalar | Animatsiyali taqdimot | Aqliy xujum |
| 13 | Nafas tizimi patologiyasi. Pnevmoniyalar. | Animatsiyali taqdimot | Aqliy xujum ”Qanday” ierarxik” diagrammasi |
| 14 | Hazm tizimi patologiyasi. | Taqdimot | Aqliy xujum Venna |
| 15 | Jigar va me’da osti bezi patologiyasi. Yog’li gepatozlar | Taqdimot | Aqliy xujum B.B.B |
| 16 | Buyraklar patologiyasi. Arterionefroskleroz | Animatsiyali taqdimot | Aqliy xujum Klaster |
| 17 | Endokrin tizimi patologiyasi. Endokrinopatiyalar. | Animatsiyali taqdimot | Aqliy xujum Vertushka Venna diagrammas |
| 18 | Nerv tizimi patologiyasi. | Taqdimot | “Nilufar guli”,B.B.B. |

**Talbalar mustaqil ishining tashkiliy shakllari**

Namunaviy (ishchi) dasurda mustaqil izlashtirish uchun ajratilgan mavzular bo`yicha kafedrada xar bir talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobilyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-Internetdan olingan ma'lumotlar bo`yicha axborot tayyorlash

-Xorijiy adabiyotlaridan foydalanib ma'lumotlar tayyorlash

- Referat yozish;

- Multimediya, prizentatsiya tayyorlash

-vaziyatli masalalar kompleksini ishlab chiqish va x.k.

**Talaba mustaqil ishini nazorat olish va baholash**

Xar bir fan bo`yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi ishchi o`quv rejasining 10 bandida keltirilgan professor o`qituvchilar shaxsiy ish rejasining tashkiliy uslubiy bo`limida (1540 soat doirasida) qayd etiladi.

Professor-o`qituvchilarning reyting ballarini to`plash va baholashda nazarda tutiladi.

-Talabalarningmustaqilishlarinibajarishlariuchunkonsultatsiyalaro`tkazishtavsiyaetiladi.

-Konsultatsiya jadvali fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi va konsultatsiya soatlari gurux jurnalida qayd etib boriladi.

-Talabalar mustaqil ishlarini nazorat qilish mashg`ulotlarni bevosita olib oruvchi o`qituvchi tomnidan amalga oshiriladi.

- Talabalar mustaqil ishi muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatga mos keladi va reyting ballari bilan baholanadi.

- Talaba mustaqil ishi natijalariga ko`ra maksimal balning 55% dan kam to`plagan holatida shu fan bo`yicha yakuniy nazoratga kiritilmaydi

-Talabalar bajargan mustaqil ishlari kafedralarda bir yil maboynida saqlanadi.

**Patologiya fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni**

Talabalarning fan bo`yicha o`zlashtirishini baholash semestr (o`quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JN)
- oraliq baholash (ON)
- talabaning mustaqil ishi (TMI)
- yakuniy baholash (YaN)

Har bir fan bo`yicha talabaning semestr (yil sikl) davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

| № | Baholash turi | Maksimal ball | Saralash bali |
|---|---|---|---|
| 1 | Joriy baxolash | 45 | 24,75 |
| 2 | Talabaning mustaqil ishi | 5 | 2,5 |
| 3 | Oraliq baholash | 20 | 11,0 |
| 4 | Yakuniy baholash | 30 | 16,5 |
| | JAMI | 100 | 55,0 |

Talabaning fan bo`yicha to`plagan umumiy bali har-bir baholash turlarida to`plagan ballar yig`indisiga teng bo`ladi.

| № | Ballar | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|
| 1 | 5 | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlash olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo‘lish. |
| 2 | 4 | Yaxshi | Mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo‘lish. |
| 3 | 3 | Qoniqarli | Mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo‘lish. |
| 4 | 2 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik; bilmaslik. |

***JORIY BAHOLASH*** (JB) - talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. JB fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish shakllarida o‘tkaziladi. Patologiya fanidan joriy baholash 100 balli reyting tizimiga binoan muhokamasida va ta’limning interaktiv uslublarida faol

qatnashishi uchun quyidagi tartibda amalga oshiriladi: 20% (1 ball) - vazifasini bajarilishi uchun beriladi, 60% (3 ball) - nazariy materiallarni muxokamasida faol qatnashishiga beriladi, 20% (1 ball) - kuzatilgan natijalar, Chiqarilgan xulosalar bilan amaliy ishni bayonini toʻldirish va ishni himoya qilish uChun beriladi. JB da maksimal ball – 5 ball.

Mashgʻulot darslarida № 1, 3, 5, 7, 11, 13, 16, 17 talabalar joriy baxolanmaydi. 9 ta JB oʻtkaziladi, umumiy JB da maksimal ball 45.

| № | Ballar | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|
| 1 | 5 | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlash olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega boʻlish. |
| 2 | 4 | Yaxshi | Mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega boʻlish. |
| 3 | 3 | Qoniqarli | Mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega boʻlish. |
| 4 | 2 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega boʻlmaslik; bilmaslik. |

***TALABALARNING MUSTAQIL ISHI*** (TMI) patologiya fani dasturiga mos ravishda tashkil etilgan. TMI referat, slayd, adabiy manbalarni toʻplash va sistemalashtirish, test savollari tuzish, prezentatsiyalar, vaziyatli masalalar, videoroliklar boʻyicha moʻljallangan. TMI boʻyicha hisobot kafedra tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan shakl tartibda topshiriladi va talabalarga semestr boshida etkaziladi. Semestr davomida ikkita mustaqil ish referat shaklida qabul qilinadi: har biri 2,5 ball bilan baholanadi, jami - 5 ballni tashkil qilinadi. TMI ga qoʻyilgan baho (ball) talabaning semestr davomida toʻplagan baholari (JB) ga qoʻshiladi.

Mustaqil ish boʻyicha belgilangan maksimal reyting balining 54% va undan kam ball toʻplagan talaba fan boʻyicha yakuniy nazoratga qoʻyilmaydi.

Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida roʻyxatga olinadi va 2 yil mobaynida saqlanadi.

**TMI ning oʻzlashtirishi quyidagicha baholanadi: maksimal 2,5 ball.**

| Ballar | Baho |
|---|---|
| 2,15-2,5 | A’lo |
| 1,77-2,12 | Yaxshi |
| 1,37-1,75 | Qoniqarli |
| 1,35 | Qoniqarsiz |

*ORALIQ BAHOLASH* (OB) - semestr davomida oʻquv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini oʻz ichiga olgan) boʻlimi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy koʻnikma darajasini aniqlash va baholash uchun, OB nazorat kafedra majlisi qaroriga binoan kombinatsiya (ogzaki va yozma) usulida amalga oshiriladi. Patologiya fanidan OB semestr davomida bir marta oʻtkazilidi. OB soni oʻkuv faniga ajratilgan umumiy soatlar xajmidan kelib chiqqan holda oʻtkaziladi. OB baholashdan 55% va undan ortiq olgan talaba YAB baholashga kiritiladi. OB ni 2 hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi va balli koeffitsientsiz qayd etiladi.

OB da maksimal ball 20.

| Ballar | Baho |
|---|---|
| 17,2-20,0 | a’lo |
| 17,0-14,2 | Yaxshi |

| | |
|---|---|
| 14,0-11,0 | Qoniqarli |
| 0-10,8 | Qoniqarsiz |

***YAKUNIY BAHOLASH*** (YAB) – semestr yakunida fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun o‘quv mashg‘ulotlar tugaganidan so‘ng o‘tkaziladi. YAkuniy baholashga mazkur semestrni muvaffaqiyatli yakunlagan hamda joriy, oraliq baholashlarni va talabalarni mustaqil ishidan ijobiy ya’ni 55% va undan yuqori ballarga ega bo‘lgan talabalar qo‘yiladi.

Patologiya fanidan yakuniy baholash fakultet Ilmiy kengashni qaroriga binoan yozma shaklda o‘tkaziladi. YAB da maksimal ball 30.

| Ballar | Baho |
|---|---|
| 25,8-30,0 | a’lo |
| 21,3-25,5 | Yaxshi |
| 16,5-21,0 | Qoniqarli |
| 0-16,2 | Qoniqarsiz |

JB, OB va YAB turlarida fanni o‘zlashtiri olmagan (54% dan kam ball to‘plagan) yoki uzrli sabab bilan baholash turlarida ishtirok eta olmagan talabalarga quyidagi tartibda qayta baholashdan o‘tishga ruxsat beriladi: qoldirgan amaliy mashg‘ulot kelgusi darsga qadar guruh o‘qituvchisiga qayta topshirish va maslahat kunida topshiriladi, 3 ta mashg‘ulotni qoldirgan talaba fakultet dekani ruxsati bilan qayta topshiradi, qayta topshirish jaridasida qayd qilinadi; har bir qoldirgan ma’ruza mashg‘uloti uchun agar u qayta topshirilsa, JB da to‘plagan ballar yig‘indisidan 5%, agar qayta topshirilmasa 10% balldan olib tashlanadi; OB ni 2 hafta muddatda qayta topshirishga ruxsat beriladi; semestr yakunida fan bo‘yicha saralash balidan kam ball to‘plagan talabaning o‘zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblanadi; akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin dekan ruxsatnomasi asosida qayta o‘zlashtirishi uchun bir oy muddat beriladi, shu muddat davomida o‘zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyaga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, appelyasiya komissiyasiga murojaat etishlari mumkin. Appelyasiya komissiyasi 3 a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda rektor buyrug‘i bilan tashkil etiladi. Talabalar appelyasiya komissiyasiga fan bo‘yicha YAB natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun davomida ariza bilan murojat qilishlari mumkin. Appelyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib Chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini beradi.

O‘quv rejasida muayyan semestr (o‘quv yili) ga belgilangan fanlarning barchasi saralash balidan Yuqori ball to‘plagan talabalar rektorning buyrug‘i bilan kursdan kursga o‘tkaziladi.

Fanlardan reyting nazorati bo‘yicha yakunlovchi qaydnoma varaqasi (vedomost) fan tugagan kundan 1 kun muddatda kafedrada 2 nusxada to‘ldiriladi va mas’ul xodim, kafedra mudiri tomonidan imzolanib, 1 nusxasi dekanatlarga topshiriladi.

Talabaning fan bo‘yicha baholash turlarida to‘plagan ballari reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi

## Foydalanilgan adabiyotlar

13. I. A. Karimov. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent-1997yil.
14. B.Xodiyev; L Golish “Mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari, Toshkent – 2010-yil

3.Абдуллахужаева М.С., Основы патологии человека. Том-1,2. Т., изд–во “Ибн Сино”, 1997г.

4.Abdullaev N.X., Karimov X.E. Patofiziologiya. T., “Ibn Sino” nashriyoti.,1998 y.

5. Abdullaev I.X., Karimov X.E.., Iriskulov B.O‘., Mirtursunova S.Z. Patologik fiziologiya asoslari. T., “Fan” nashriyoti, 2008 y.

6. Karimov H.Y., Saidov.S.A. Patologiya. T., SH.SH. Bobojonova. Patologiya. T., “Tafakkur qanoti”, 2014y.

7.Abdullaev N.X., Patofiziologiya. T., 1998 y.

8.Чертеков К., Умумий патология. Т., 2013 й. 230 бет.

## Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirtursunova S.Z., Musaev X.N., Bagdasarova E.S., Salibaeva S.A. “Patologiya” fanidan o‘quv – uslubiy qo‘llanma “KOLORIT GROUP” XK. Toshkent 2008 y.
2. Адо А.Д. и Ишимова Л.М.. Патологическая физиология. М., изд – во “Медицина”, 1980 г.
3. 3. Березнякова А.И. Патология учеб. пособ. Харъков. 1985 г.
4. Abdullaev N.X.. Karimov X.YA., Patologik fiziologiyadan amaliy mashg‘ulotlar uchun qo‘llanma. T., “ToshMI” nashriyoti, 1994 y.

6. Литвитский П.И.. Патологическая физиология. М., изд – во “Медицина”, 1995 г.

## Xorijiy adabiyotlar:

1. Robbins+Basic+Pathology+(9th+Edition) California- 2013y

2.A.D.Ado, “Patologicheskaya fiziologiya”. Xarkov- 1985yil
3.S.G. Xachkruzov.” UZI v ginekologii”. Sankt- Peterburg-2003yil

4.Vikrem Dogra; Debra Djorj Rubens.” Sekreti Ultrazvukovoy diagnostiki.” London-2006 yil.